

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 73 (1672), 2026-yil 14-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## MOLIYAVIY JARIMALARNI QO‘LLASH TARTIBINI LIBERALLASHTIRISH VA SUD NAZORATINI KUCHAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-aprel kuni tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini yanada liberallashtirish, bu borada ortiqcha byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda bugungi kunda moliyaviy jarimalarni qo‘llash amaliyotida tadbirkorlar uchun qator muammolar saqlanib qolayotgani qayd etildi. Xususan, ayni paytda jarimalarning aksariyati vakolatli organlar, qolganlar esa sudlar tomonidan qo‘llanilayotgani sud nazoratini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan joriy yil 1-oktabrdan moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy to‘lashni rag‘batlantiruvchi yangi va yagona tartibni joriy etish taklif qilindi. Unga ko‘ra, tadbirkorlik subyekti vakolatli organning qarori topshirilgan kundan boshlab bir oy ichida jarimaning 50 foizini to‘lasa, qolgan qismini to‘lashdan ozod etiladi.

Shuningdek, jarimani olti oy davomida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini yaratish nazarda tutilmoqda. Bunda qaror topshirilganidan so‘ng bir oy ichida jarima summasi oltidan bir qismi to‘lansa, mazkur tartib avtomatik ravishda amal qiladi.

Sud nazoratini kuchaytirish maqsadida vakolatli organning moliyaviy jarimani qo‘llash to‘g‘risidagi qarori sud tomonidan

bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda undirilgan mablag‘larni 15 kun muddatda qaytarish mexanizmini belgilash taklif etildi. Agar ushbu muddat buzilsa, kechiktirilgan har bir kalendardun uchun Markaziy bank asosiy stavkasidan kelib chiqqan holda foiz hisoblanishi nazarda tutilmoqda.

Moliyaviy jarimalarni qo‘llash jarayonlarini raqamlashtirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Biznes-ombudsman tomonidan yuritiladigan “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘llanilgan moliyaviy jarimalarning elektron reyestrini joriy etish taklif qilindi.

Vakolatli organlarning qarorlari qabul qilinganidan keyin elektron raqamli imzo bilan mazkur tizimga kiritilishi shart bo‘ladi. Axborot tizimiga kiritilmagan va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan qarorlar haqiqiy emas deb hisoblanadi hamda ular asosida jarima undirilmaydi.

Shuningdek, mobil ilova orqali moliyaviy jarimalar hisobini yuritish, ularni monitoring qilish va onlayn to‘lash imkoniyatini yaratish, manfaatdor

idoralarning axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish zarurligi qayd etildi. Soliq to‘lovchi — tadbirkorlik subyekting shaxsiy kabineti orqali moliyaviy jarima to‘g‘risidagi qarorlar ustidan onlayn shikoyat berish va shikoyat kiritilishi bilan qaror ijrosini avtomatik to‘xtatib turish imkoniyatini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Taqdimotda huquqiy ta‘sir choralari qo‘llash tartibini unifikatsiya qilishga qaratilgan “Huquqiy ta‘sir choralari to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni qonunga rioya etgan holda faoliyat yuritishga rag‘batlantirish, jarima qo‘llash amaliyotida adolat va shaffoflikni ta‘minlash eng muhim vazifalardan ekanini ta‘kidladi.

Takliflarni puxta ishlab chiqib, sud nazoratini kuchaytirish, raqamlashtirishni jadallashtirish va sohada yagona, aniq hamda adolati huquqiy mexanizmini shakllantirish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘ZA

## BUXORO SAMMITI O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON O‘RTASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK TOBORA CHUQUURLASHIB BORAYOTGANING YORQIN DALILIDIR

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchilarining uchrashuvi haqida



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 11-aprel kuni amaliy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi.

Buxoroda o‘tgan uchrashuvda davlat rahbarlari ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikning keng ko‘lamli masalalarini muhokama qildilar, iqtisodiy sheriklikni mustahkamlash, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, energetika, raqamli texnologiyalar va ekologik xavfsizlik sohasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratdilar.

Ushbu tashrif ekspertlar orasida keng muhokama qilinib, uning natijalari xorijiy siyosatshunoslar va tahlilchilar tomonidan yuqori baholandi.

Davomi 2-betda

### Tarixdan saboq

## AMIR TEMUR DAVRIDA QISHLOQ XO‘JALIGI

Ajdodlarimizning boy tajribasi va dehqonchilik sirlari bugun ham amaldami?



Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini ilm-fan va yangi texnologiyalar asosida rivojlantirish borasida katta maqsadlar qo‘yilgan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida har gektardan 5 ming dollar daromad olish, eksportni 10 milliard dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Buning uchun nafaqat xorijiy texnologiyalar, balki ota-bobolarimizning ming yillar davomida to‘plagan tajribasi ham kerak.

Shu ma‘noda, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlab, Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda “Amir Temur va temuriylar davrida qishloq xo‘jaligi” monografiyasi nashrga tayyorlangani diqqatga sazovor. Kitob asosida XV-XVI asrlarda yozilgan “Fanni kishu ziroat” (“Dehqonchilik ilmi”) nodir qo‘lyozmasi yotadi. Ushbu monografiyada temuriylar davridagi dehqonchilik va mahsulot yetishtirishning boy

tajribasi keltirilib, zarur joylarda o‘sha davr usullari va yondashuvlar izohlar bilan ochib berildi. Kitobda shunday usullar borki, ular qiziq, oddiy, foydali, hayratlanarli va unutilgan bo‘lsa-da, hozir ham qo‘llanilishi mumkin. Keling, shu sirlarni birgalikda kashf qilaylik.

Davomi 3-betda



### Xalqaro konferensiya

## MOZIYNI O‘RGANISH – ISTIQBOLNI LOYIHALASHTIRISH SAN‘ATIDIR

Bugungi murakkab geosiyosiy jarayonlar davrida har bir xalq o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilash ekan, eng avvalo, o‘zligini anglashga, tarixiy ildizlariga va boy ma‘naviy merosiga tayanadi. Tarix kelajakni loyihalashtirish va millatning ertangi taqdirini belgilashda xizmat qiladigan eng qudratli resursdir. Yaqinda poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan “Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya yangi O‘zbekistonning ma‘naviy yuksalish konsepsiyasini namoyish etgan muhim voqeikka aylandi. Anjuman avvalida Prezidentimizning xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga tabrigi o‘qib eshittirildi.

“Mazkur ilmiy forum o‘lkamiz tarixidagi ulug‘vor va yorqin bosqichni tashkil etadigan Ikkinchi Uyg‘onish davri — temuriylar Renessansi mohiyatini chuqur tahlil qilish, qizg‘in muhokamalar o‘tkazish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz”, deyiladi tabrikda.

Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori milliy o‘zlikni anglash jarayoni yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatadi. Sohibqiron merosini o‘rganish davlat siyosatining o‘ziga xos yo‘nalishiga aylangan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi teran tarixiy zaminga ega ekanini tasdiqlaydi.

Davomi 3-betda

### Kun mavzusi

## YOKI INTIZOM, JARIMA

Yurtimizda yo‘l harakati qoidabuzarliklarini sodir etganlik uchun haydovchilarga nisbatan jarima ballarini yozish tizimi ishga tushganiga ham yarim yildan oshdi. Bu boradagi muhokamalar hamon davom etayotgan bir vaqtda esa yanada qat‘iyyoq tartib amalga kiritildi — endilikda joriy yilning 1-apreldan kameralar ham qoidabuzarliklar uchun jarima ballari hisoblashni boshladi.

Keyingi kunlarda bu yurtdoshlarimizning asosiy suhbat mavzularidan biriga aylangani boisi shunda. Nafaqat haydovchilar, balki avtomobil boshqarmaydigan insonlar ham buni qizg‘in muhokama qilaypti. Shu vaqtgacha jarima ballari yo‘l-patrol xizmati xodimlari tomonidan yozilgan ma‘muriy bayonnomalar asosida hisoblangan bo‘lsa, endi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish tizimlari orqali aniqlangan tegishli yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun ham jarima ballari hisoblanishi ko‘pchilikni xavotirga solmoqda. Fikr bildiruvchilarning bir qismi yangi tizim haydovchilar uchun qo‘shimcha bosim ekanini ayayotgan bo‘lsa, ba‘zilar yo‘llarda harakatlanayotgan avtomobil egalari tartibliroq, hushyorroq bo‘lishga undashini ta‘kidlamogda.

Davomi 4-betda

## OH, SENING YOSHLIGING MENDA BO‘LSAYDI...

Yerga nihol qadagandan so‘ng uning mevasini ko‘rish uchun parvarish qilish kerak. Tagini yumshatib, sug‘orish, zarur ozuqalar berib borish talab etiladi. Agar unga yaxshi e‘tibor qaratsa, g‘amxo‘rlik qilinsa, kun kelib serhosil, basavlat daraxtga aylanadi va mo‘l hosil beradi. Aks holda, nobud bo‘lishi hech gap emas. Yosh avlodning ilm-ma‘rifatli, kasb-hunarli, el koriga yaraydigan inson, sohasining yetuk kadri bo‘lib yetishishi uchun ham xuddi shu navniholga ko‘rsatilganidek e‘tibor va g‘amxo‘rlik zarur.

Davomi 6-betda





Tarixdan saboq

# AMIR TEMUR DAVRIDA QISHLOQ XO'JALIGI

## Ajdodlarimizning boy tajribasi va dehqonchilik sirlari bugun ham amaldami?



**Ibrohim ABDURAHMONOV,** qishloq xo'jaligi vaziri, akademik

Boshlanishi 1-betda

### Ob-havo qanday bashorat qilingan?

Sinoptik stansiyalar bo'lmagan davrda dehqonlarimiz ob-havoni qanday bilgan? Hayron qolasiz — ular buni o'ya, qushlarga va hatto qozonga qarab bashorat qilgan. Masalan, agar oy uchinchisi yoki to'rtinchisi kechada yorqin bo'lsa, kunduzi havo ochiq bo'lgan. Oy qizg'ish tursa — shamol kuchaygan, qoraysa — yomg'ir ko'p yoqqan. Chumchuq va sa'va daraxt ustida sayrasa, yomg'ir kutilgan. Tovuq o'zini tikilayaversa yoki qozon osilganda o'choq tagida uchqunlar ko'p bo'lsa — yomg'ir yog'ishini aytishgan.

Hozirgi zamon fani bunday kuzatuvlarni fenologiya deb ataydi. Yaponiya va Xitoyda hozir ham fermerlar oy taqvimiga asoslanib ish tutadi. Bu juda qiziq, albatta.

### Yer osti suvini qayerdan topish mumkin?

O'sha davrda dehqonlar yer osti suvi qayerdaligini bilish uchun mis qozon ishlatgan. Ha, to'g'ri angladingiz. Aynan qozon. Buning uchun ular yerni uch gaz (taxminan 2 metr) chuqurlikda kovlab, sariq mis qozonni yog' bilan moylagan. Toza jundan yong'oq kattaligida sharcha yasab, uni eritilgan mumga botirib, qozon ichiga yopishtirgan. Keyin qozon to'ng'irilib, chuqurga ko'milib, etalabgacha shu holda qoldirilgan. Agar qozon nam, jun sharcha suvga to'lgan bo'lsa, yer osti suvi yer yuzasiga yaqin, agar namlik kam bo'lsa, suv chuqurda.

Bugun bu ish geofizik asboblardan bajariladi. Ammo bobomizning usuli hozir ham kichik fermerlar uchun arzon va tushunarli bo'lishi mumkin.

### Tuproq sho'rligini... tatib bilishgan!

Hozir tuproq sho'rliги maxsus laboratoriyalarda aniqlanadi. Ammo temuriylar davrida bu borada oddiyroq yo'l tutilgan. Qanday deysizmi? Albatta, yerning ta'miga qarab. Buning uchun ikki-uch gaz chuqurlikdan

bir hovuch tuproq olinib, xumchaga solingan. Ustidan yomg'ir suvi quyib, aralashtirib, suv tinganidan keyin uning ta'mini ko'rishgan. Agar suvning mazasi o'zgarmasa, yer yaxshi. Agar sho'r yoki achchiq bo'lsa, yer sho'r. Agar yerdan yomon hid kelsa, umuman, ekin ekishga yaroqsiz.

Qizig'i shundaki, kitobda keltirilishicha, sho'r yerda faqat xurmo yaxshi o'sadi. Bugun sho'rxok hududlarda xurmo plantatsiyalari barpo etilayotgani bobolarimiz haqligini ko'rsatadi.

### Besh yuz yil avval mavjud bo'lgan usul

Bunisini hali eshitmagandirsiz?! Hozirgi kunda urug'siz tarvuz, urug'siz uzum kabi navlarga zamonaviy seleksiyaning yutug'i sifatida qaraladi. Lekin asarda bu bo'yicha ajablanarli usul bayon etilgan.

Usul quyidagicha: oshqovoq yoki bodringning palagi (shoxi) bir gaz (0,7 metr) o'sgach, uning ostidan chuqur kovlanib, palakning bir qismi shu chuqurga solinib, uchi chiqib turadigan qilib ko'miladi. Palak bir gaz o'sgach, bu ish yana takrorlanadi. Uch marta shunday qilingandan keyin palak yer ostida ildiz otib, asosiy o'simlikdan ajralganda, qolgan qismidagi meva urug'siz bo'ladi.

Buni qanday tushunish mumkin? Ilm-fanda bu holat partenokarpiya deyiladi. Ya'ni urchitilmasdan meva tugish hodisasi. Hozir buvga gomonal vositalar bilan erishiladi. Bobolarimiz esa mexanik usul — palakni ko'mib, stress hosil qilish orqali shunga erishgan. Hayratlanarli... Afsuski, bu usul ham unutilgan.

yetib kelganda, ochig'i, hayratimni yashira olmadim.

### Anor va uzumni danaksiz yetishtirish

Asarda nafaqat oshqovoq, balki anor va uzumni ham danaksiz (urug'siz) qilish usullari keltirilgan. Anorni danaksiz qilish uchun ekilayotgan nihol bir gaz miqdorida yorilib, ichidagi mag'zi olib tashlanadi. So'ng yorilgan joy bir-biriga yopishtirilib, lux (tol qavzog'i) bilan bog'lanadi, toza loy va yangi go'ng bilan suvalib, yerga ekiladi. Ko'klab chiqqandan keyin yoriq ustidagi qismi kesib tashlanadi. Natijada yetilgan anorda urug' bo'lmaydi. Uzumni danaksiz qilish uchun esa tokning yerga tegadigan qismi yorilib, ichidagi mag'zi olib tashlangan, so'ng yoriq yopishtirilib, molning yangi go'ngi bilan bo'yab ekilgan. Bunday tokning uzumi urug'siz bo'lib yetiladi. Qarang, oddiy, lekin samarali usul.

Hozirgi zamon dehqonchiligida urug'siz mevalar seleksiya yo'li bilan olinadi. Lekin bobolarimiz mexanik usul bilan ham shunga erishgani hayratlanarli. Afsuski, bu usullar unutilgan, biroq buni sinab ko'rsak, bog'dorchilikda haqiqiy yangi tajriba bo'ladi.

### Bir tokdan uch rangli uzum

Asardagi eng qiziqarli boblardan biri payvandlashga bog'ishlangan. Unda aytilishicha,



Tarvuzchilikda ilg'or Ko'kdala fermerlari buni sinab ko'rsa, nafaqat ertaki tarvuz, balki danaksiz hosil va qo'shilgan qiymatli yangi brendga ega bo'larmidiki? Davr ana shunday yangi bilimlarni va izlanuvchanlikni talab qilyapti.

Shu o'rinda boshqa mevalarni danaksiz qilishga intilishganmikan degan haqli savol tug'iladi. Axir hammamiz danaksiz anor va uzum falon bozorda yoki davlatda chiqarkan deb hayrat bilan gapiramiz-ku. Qo'lyozma tarjimasini tahrirlar ekanman, bu ma'lumotlarga

uch xil tokdan ikki gaz uzunlikda uch novda olinib, har biri mag'ziga zarar yetkazmay yorilib, so'ng bir-biriga yopishtirilgan. Lux bilan bog'lanib, ekilgan. Bunday tok hosili rangda bo'lgan. Tasavvur qilyapsizmi, bir novdada oq, qizil va qora uzum birga o'sgan.

Yana ham qizig'i, agar tokning ichidagi mag'zi o'miga mushk solib ekilsa, uzumdan mushk hidi kelgan. Agar surg'i dori solinsa, uzumning o'zi surg'i (ichni keltiruvchi) bo'lib qolgan. Qoyil qolmasdan iloji yo'q.



Buning izohi qanday? Bugun bu usulni inyeksiya yoki molekulyar fermerlik deb atashadi — o'simlikni dori tashuvchi konteyner sifatida ishlatish g'oyasi. Hozir gen muhandislarlari vaksina va antitela ishlab chiqaruvchi o'simliklarni yaratmoqda. Temuriylar bundan 500 yil oldin xuddi shu g'oyani amalda qo'lgan. Bu faqat q'urur bag'ishlaydi va ildamroq bo'lishga yetaklaydi.

bo'lgan. Zamonaviy agronomiya buni stressli ko'chirish deydi, lekin amalda kam qo'laydi.

### Zararkunandalardan qutulishning oddiy tadbiri

Kimyoviy pestitsidlar bo'lmagan davrda bog'bonlarimiz qo'l ostidagi narsalar bilan hasharotlarga qarshi kurashgan. Mana ulardan ayrimlari.

Anzur piyozi (yovvoyi piyoz) olma daraxtining tomiri ostiga ekilsa, qurt tushishidan saqlagan. Kabutar go'ngi suvda ivitilib, shoxlarga surkalsa, meva ko'paygan.

Hozirgi zamon dehqonchiligi bunga nima deydi? Ilm-fan bu usullarning ko'pini tasdiqlagan. Zamonaviy fanda bu ekologik muhandislik deyiladi. Masalan, anzur piyozi tarkibidagi alkaloidlar, ammiakli aralashmalar kuchli insektitsidlar. Hozir ekologik dehqonchilikda shunga o'xshash tabiiy vositalarga qaytish kuzatilmog'da. Ammo fermerlarimiz bu usullarni unutilgan.

### Unutilgan tejankorlik

Suv tanqisligi bugungi kunning eng katta muammolaridan biri. Temuriylar esa suvni tejashni bilgan. Ular poliz ekinlari uchun mo'ljallangan yerni qishda sug'orib, keyin ustini xashak bilan yopgan. Shunda yer yozda kam suv talab qilgan. Bu usul hozirgi mulchalash (yerni xashak, somon bilan qoplash) texnologiyasining aynan o'zi. Yevropada bu usul XX asr oxirida qayta "kashf" etilgan. Bizda esa hanuz ko'p fermerlar yerni ochiq qoldirib, suvni isrof qiladi.

Yer ostiga somon to'shlab, bug'doyni shunda saqlashgan, ustini loy bilan suvashgan. Bunday omborda g'alla 50-yilgacha buzilmaydi. Bu zamonaviy modifikatsiyalangan atmosferali ombor texnologiyasining qadimiy ko'rinishidir.

Hozir bunday bilimlar bir oz zamonaviy ko'rinishda butun dunyoda foydalanilyapti, masalan, paxtani plyonka ostida ekishning Shinjon usuli ancha samarali, suv tejash imkonini beradi. Joriy yilda 325 ming gektar maydonga shu usul qo'llanilmoqda va bu bejiz emas!

### Ustoz-shogird an'anasi — ajdoddan meros

Asrlar davomida, xususan, temuriylar davrida ham agrotexnik bilimlar asosan amaliyot orqali, ya'ni ustoz-shogird an'anasi, oilaviy tarbiya va kundalik mehnat jarayonida avloddan avlodga o'tgan. Kexsa va tajribali dehqonlar bilim hamda ko'nikmalarini yoshlarga o'rgatib, yerga ishlov berish, ekin turlarini tanlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish usullarini amalda namoyish etgan. Bu an'ana tufayli har bir avlod otasidan ko'ra ko'proq bilimga ega bo'lib, dehqonchilik doimiy rivojlangan.

Bugun qishloq xo'jaligida ustoz-shogird tizimi qayta tiklanmoqda. Jumladan, 2026-yildan boshlab paxtachilikda 1000 dan ortiq ilg'or fermer kam hosil oloyotgan 5 mingga yaqin fermerga bevosita ustozlik qilish tizimi joriy qilindi. Maqsad — bilim va tajribani sohadagi qoloqlikni bartaraf etishning eng samarali vositasiga aylantirish.

Bu borada eng yorqin misol: Mirzacho'l tumanida tashkil etilgan "Azamat maktabi"dir. Paxtakor Azamat Sultonov ilg'or usullar bilan cho'l sharoitida gektaridan 70 sentner paxta olishga erishmoqda. Uning maktabida endi nafaqat Mirzacho'l, balki boshqa tumanlardan kelgan fermerlar ham tajriba ortirmog'da. Bu — ajdodlarimizning "ustoz-shogird" an'anasining zamonaviy ko'rinishi. Agar temuriylar davrida bu usul orqali agrotexnik bilimlar asrlar davomida takomillashgan bo'lsa, bugun ham shu yo'l bilan qisqa muddatda katta natijalarga erishish mumkin.

### Xulosa o'rmida

Afsus, kitobda aytilgan juda ko'p usul va ko'rsatmalarni bu yerda keltirishga imkonimiz yo'q. Kitobni o'qib, undagi bilimlardan bahramand bo'lishni har bir yurtodoshimizga tavsiya qilamiz. Sababi "Amir Temur va temuriylar davrida qishloq xo'jaligi" monografiyasi nafaqat tarixiy hujjat, balki bobolarimizning tabiat bilan uyg'unlikda yashash, yer va suvdan oqilona foydalanish borasidagi boy tajribasi to'plangan ma'naviy merosimizdir.

Hozirgi zamon dehqonchiligi kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarga tobora qaram bo'lib bormog'da. Bu esa tuproqni sho'rlantirib, suvni kamaytiradi, mahsulot sifatiga zarar keltiradi. Temuriylar davridagi usullarning aksariyati ekologik toza, arzon va har bir fermer uchun tushunarli.

Qishloq xo'jaligi tizimi islohotlari asosi sifatida sohaga olib kiritilgan STEM+ HECl (STEM — Ilm-fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika) (HECl — Insoniylik, Axloq, Ijodkorlik, Tasavvur) dasturi aynan shu boy merosni tiklash, uni zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirishga ahamiyatli. Ehtimol, aynan shu "unutilgan" usullar kelajakda ekologik toza va barqaror dehqonchilikning asosiga aylanar!?

## Xalqaro konferensiya

# MOZIYNI O'RGANISH — ISTIQBOLNI LOYIHALASHTIRISH SAN'ATIDIR



**Munisjon HAKIMOV,** O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi bo'limi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda


Amir Temur yaratgan Ikkinchi Renessans tajribasi — kuchli davlat boshqaruvi, adolati jamiyat va ilm-fan homiyligi — bugungi Uchinchi Renessans uchun asosiy andozadir. Tarixiy xotirani tiklash bevosita kelajakni loyihalashtirish demakdir. U millatimizni yot ta'sirlardan asrovchi ma'naviy qalqon vazifasini o'taydi. Toshkent anjumani yaqqol isbotladiki, yangi O'zbekiston o'z kelajagini qurishda ajdodlarning bunyodkorlik energiyasi va

davlatchilik falsafasidan strategik resurs sifatida oqilona foydalanmoqda.

Jahon tarixida har qanday millatning yuksalish jarayoni o'zidan oldingi madaniy poydevorga asoslanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda poydevori yaratilayotgan Uchinchi Renessans ham bevosita Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan Birinchi hamda Ikkinchi Renessans davrlarining mantiqiy davomidir. Birinchi Renessans mutafakkirlari, xususan, Forobiy tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan "fozil jamiyat" va "odil hukmdor" g'oyalari Amir Temur va temuriylar amaliyotiga joriy etib, Ikkinchi Renessansga asos soldi. Temuriylar davridagi yuqsalish va turkiy-forsiy madaniyatlar uyg'unligi xorijiy olimlar tomonidan ham chuqur tadqiq etilgan. Xususan, kanadalik navoiyshunos olimi Mariya Sabteli o'zining mashhur tadqiqotida bu davri madaniyatlashuv va siyosiy barqarorlikning

noyoib namunasi sifatida baholaydi. Uning asarida temuriylarning madaniy homiyligi va adabiy muhitning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ochib berilgan. Temuriylar davridagi siyosiy-madaniy barqarorlik badiiy tafakkurning mislsiz parvoziga yo'l ochdi va bu Renessansning cho'qqisi Alisher Navoiy dahosi bilan yakunlandi. Navoiy o'z asarlarida insonning ruhiy kamoloti va komil inson konsepsiyasini ilgari surdi. Moddiy taraqqiyot yuksak ruhiy-axloqiy mezonlar bilan uyg'unlashganligi haqiqiy Renessans yuz berishini Navoiy merosi yaqqol isbotlab berdi. Uchinchi Renessans shunchaki iqtisodiy yoki texnologik sakrash emas, balki milliy o'zlikni anglash va ma'naviy yuksalish jarayonidir. Temuriylar davri ma'naviy merosimiz yangi davr Renessansini tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, kelajakning buyuk binosi faqat mustahkam tarixiy ildizlar ustidagina qad rostlay oladi.

Konferensiyaning eng esda qolarli va amaliy natijalarga boy voqealaridan biri "Turkiy dunyo adabiyoti" turkumidagi 100 jildli yangi kitoblar to'plami taqdimoti bo'ldi. Bu bebaho xazina qadimgi O'rxun-Enasoy bitiklaridan boshlanib, temuriylar davri durdonalari orqali zamonaviy adabiyot bilan tutashadi va ikki ming yillik tarixni to'liq qamrab oladi. TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev ta'kidlaganidek, mazkur loyihaning "Dunyodagi eng yaxshi adabiy loyiha" sifatida e'tirof etilishi yangi O'zbekistonning turkiy dunyoni ma'naviy birlashtirishdagi madaniy yetakchiligini yorqin isbotidir. Tadbir ishtirokchilari adabiy aloqalar diplomatiyaning ta'sirchan va barqaror shakli ekanini e'tirof etdi. Asarlarning turli tillarda, xususan, o'zbek adablarining asarlari qozoq yoki qirg'iz tillarida nashr etilishi xalqlar o'rtasidagi hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Global mafkuraviy kurashlar



“Jahon tarixida har qanday millatning yuksalish jarayoni o'zidan oldingi madaniy poydevorga asoslanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda poydevori yaratilayotgan Uchinchi Renessans ham bevosita Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan Birinchi hamda Ikkinchi Renessans davrlarining mantiqiy davomidir.

davrida yoshlarni yot ta'sirlardan asrovchi kuchli "ma'naviy qalqon" vazifasini aynan ana shunday salmoqli adabiy meros o'taydi. Global geosiyosiy nizolar avj olgan bugungi davrda Amir Temur merosiga qaytish insoniyat uchun tinchlik va barqarorlikning "ma'naviy manifesti" vazifasini o'tashi konferensiyada alohida e'tirof etildi. Sohobqironning "Kuch — adolatda" g'oyasi bugungi kunda xalqaro xavfsizlikning universal formulasi sifatida namoyon bo'lmoqda va bu tinchliksevar tashqi siyosatning tarixiy ildizlari naqadar mustahkam ekanini ko'rsatadi.

Konferensiyaning amaliy natijasi sifatida qabul qilingan va 2030-yilgacha mo'ljallangan "yo'l xaritasi"da "Temur tuzuklari"ni raqamlashtirish, xorijiy arxivlardagi qo'lyozmalarni yurtimizga

qaytarish kabi vazifalar belgilandi. Bu yangi O'zbekistonning intellektual suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarixni o'rganish faqat o'tmish bilan faxrlanish emas, balki uzoqni ko'zlab porloq istiqbolni loyihalashtirish san'atidir. Ushbu tadbirlar besh nafaqat buyuk ajdoddan avlod, balki ular boshlagan buyuk tamaddunning davomchilari ekanimizni anglatdi va Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo'lida ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'z tarixini, tilini va milliy qadriyatlarini Sohobqiron kabi aziz tutgan xalq qudratli davlat barpo etishdek buyuk orzuiga albatta erishadi. Toshkent anjumani Sohobqiron shaxsini jahon tamaddunining ajralmas bo'lagi sifatida qayta kashf etib, millatni yagona maqsad yo'lida mustahkam birlashtirgan tarixiy voqealik bo'lib qoladi.

**Boshlanishi 1-betda**

Aslida, ushbu tizimning amaliyotga kiritilishi haqida avvaldan xabardor edik. O'tgan yilning 1-iyun sanasidan jarima ballari yozilishi boshlangach, keyinchalik kameralar ham ballarni qayd etishi haqida xabar berilgandi. Hukumatning tegishli qarori bilan kiritilgan yangi tizim yo'llardagi qo'pol qoidabuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish uchun zarurat ekani aytilgan. Bu haydovchilarning intizomini kuchaytirish, yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash, qoidabuzarlik ortidan sodir etilishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda yo'l harakati madaniyatini oshirishga qaratilgan muhim chora ekani ta'kidlanmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda 9364 ta yo'l-transport hodisasi qayd etilgan. Bularning katta foizi haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga e'tibor bermasligi oqibatida kelib chiqqan. Kimningdir qoidalarga bepisandligi boshqa bironing hayotiga xavf solishi achinarli, albatta. Ballar tizimi esa har bir haydovchining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirishi kerak. Tahsilarga ko'ra, yuritmizda jarima ballarni hisoblash boshlanganidan so'ng 2025-yilning o'zida haydovchining aybi bilan sodir etilgan avtohalokatlar 34 foiz kamaygan.

**Telefondan foydalanilganlik uchun ballar hisoblanmaydi, ammo...**

Shunday qilib, 1-apreldan mamlakatimiz ko'chalaridagi kameralar tegishli qoidabuzarliklar uchun jarima ballari hisoblanishi boshlandi. Haydovchilarning aksari bundan norozi bo'lishni ham unutilib, darhol hushyor tortib qoldi, imkon qadar qoida buzmaslik va jarima ballarni olmaslikka harakat qilayotgani, bu haqida bir-birini ogohlantirayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Gap shundaki, jarima ballari shunchaki haydovchiga beriladigan baho emas. Ular uchun jarima undirilmasa-da, har bir to'plangan ball jiddiy oqibatlarga olib keladi. Haydovchilar ballar sabab hatto haydovchilik huquqidan vaqtincha mahrum etilishi ham mumkin.

Ammo buning uchun yil davomida 12 ball to'planishi kerak. Albatta, bu ijobiy harakatlar uchun beriladigan ballar emas, balki har bir yo'l harakati qoidabuzarligi sabab haydovchi hisobiga yozib boriladigan raqamlardir. Ballarni qo'llash va hisoblash tartibi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan belgilangan. Jarima ballari haydovchilar qoidabuzarliklarni birinchi marta

sodir etgan kundan boshlab keyingi yil shu kunga qadar amal qiladi va "E-jarimaball" tizimi orqali inson omilidagi avtomatlashtirilgan tartibda qayd etib boriladi. Haydovchilar o'z ballarni shu tizim orqali yoki rasmiy mobil ilova yordamida mustaqil kuzatib borishi mumkin. Ma'lumotda to'plangan jarima ballari bilan birga qabul qilingan qaror raqami va sanasi kabilar ham ko'rinadi.

tegishli qarori bilan "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 12 ta moddasiga ko'ra qo'pol turdagi qoidabuzarliklar uchun jarima ballari belgilangan. Aytaylik, svetoforning qizil chirog'ida harakatlanish, ruxsat etilmagan joyda to'xtab turish, tezlikni belgilangan me'yordan oshirish kabilar bevosita inson omili bilan bog'liq va afsuski, bunday qoidabuzarliklarni muntazam sodir etib kelayotganlar bor. Ammo ijtimoiy

**Ballar qoidabuzarlik darajasiga qarab 0,2 ball dan 2 ball gacha tartibda hisoblanadi. Masalan, tezlikni oshirish 0,5 ball dan 2 ball gacha (oshish darajasiga qarab), qizil chiroqda o'tish 1 ball, yo'l transport hodisasi joyini tark etish 2 ball yozilishiga sabab bo'ladi va hokazo. Ana shu raqamlar to'planib bir yil ichida 12 ballga yetganida esa haydovchiga "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks moddalari asosida tegishli tartibda jazo choralarini qo'llanilib, 6 oydan 3 yil muddatgacha haydovchilik guvohnomasidan mahrum etiladi.**

Ballar qoidabuzarlik darajasiga qarab 0,2 ball dan 2 ball gacha tartibda hisoblanadi. Masalan, tezlikni oshirish 0,5 ball dan 2 ball gacha (oshish darajasiga qarab), qizil chiroqda o'tish 1 ball, yo'l-transport hodisasi joyini tark etish 2 ball yozilishiga sabab bo'ladi va hokazo. Ana shu raqamlar to'planib bir yil ichida 12 ballga yetganida esa haydovchiga "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks moddalari asosida tegishli tartibda jazo choralarini qo'llanilib, 6 oydan 3 yil muddatgacha haydovchilik guvohnomasidan mahrum etiladi.

Odamlarni tashvishga solayotgan masala ham shunda. Bir yil uchun 12 ball juda ozdek, kutilmaganda sodir etiladigan istalgan yo'l harakati qoidasi ham bu ballarni to'plab olishga sabab bo'lishi mumkinligidan ko'pchilik xavotirda. Hatto ijtimoiy tarmoqlar orqali "endi kuzatuv kameralari piyodaga yo'l bermaslik, xavfsizlik kamarini taqmaslik, telefonidan foydalanish kabi qoidabuzarliklar uchun ham jarima bali yozadi" mazmunidagi ma'lumotlar tarqalib, tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. — Jarima ballari bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ayrim ma'lumotlar noto'g'ri bo'lib, haqiqatga to'g'ri kelmaydi, — deydi O'zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti YHXX axborot xizmati boshlig'i Zoyir Yo'ldoshev. — Hukumatning

tarmoqlarda keltirilayotganidek, piyodaga yo'l bermaslik, xavfsizlik kamarini taqmaslik, telefonidan foydalanish kabi qoidabuzarliklar uchun jarima ballari mavjud emas. Biroq bu ushbu turdagi qoidabuzarliklar engil ekani va ularni istalgancha amalga oshirish mumkinligini anglatmaydi.

**Avtomobil ichida mulk egasi emas, boshqa odam bo'lsa-chi?**

Kameralar belgilangan qoidabuzarliklar uchun jarima ballarni yozishi tushunarli. Ammo qoidabuzarlik qayd etilgan avtomobil ichida mulk egasi emas, balki boshqa odam bo'lsa-chi? Tabiiyki, kamera haydovchi shaxsini aniqlab, uning o'ziga jarima balini hisoblay olmaydi. Har holda hozircha bunday tizim yo'lga qo'yilmagan. Shunday ekan, boshqa birov sodir etgan qoidabuzarlik uchun avtomobil egasi nomiga jarima bali qayd etilishi qanchalik o'rinni?

Keyingi kunlarda yangi tizim bilan bog'liq berilayotgan eng ko'p savollardan biri ham shu bo'lmoqda. Ya'ni mashina egasi boshqa, ruda esa boshqa odam bo'lgan holatda jarima bali haqiqiy huquqbuzarga yozilishi qay tartibda amalga oshirilishi, umuman, bu vaziyat tizimda




nazarda tutilganmi yoki yo'q ko'pchilikni qiziqtirmoqda. Mutasaddilar bunday holatda mas'uliyatni avtomobilni boshqargan fuqaroga topshirish tartibi ishlab chiqilgani va talabgorlar tegishli qoida asosida uni amalga oshirishi mumkinligi bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirishlar berilmoqda.

Keltirilishicha, yangi tartibga asosan, jarima ballarni taqsimlash mexanizmi ham joriy etilmoqda. Unga ko'ra, agar transport vositasini uning mulkdori emas, boshqa shaxs ishonchnoma, sug'urta polisi yoki yo'l varaqasi asosida boshqargan bo'lsa, jarima ballari aynan qoidabuzarlikni sodir etgan haydovchiga yuklanishi mumkin.

— Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan jarima ballarni transport vositasini boshqargan haydovchiga nisbatan qo'llash

oshiriladi. Keling, buni my.gov.uz misolida tushuntiraman. Dastlab transport vositasi egasi, ya'ni mulkdori tomonidan shaxsiy kabinet orqali ariza kiritilib, boshqarish huquqini olgan shaxs o'z majburiyatlarini elektron raqamli imzo yoki "Face ID" orqali tasdiqlashi kerak. Ushbu xizmat uchun BHMning 10 foizi, ariza my.gov.uz orqali topshirilganda esa 9 foizi miqdorida yig'im undiriladi. Shundan so'ng kiritilgan ariza YHXXning ma'muriy amaliyot moduliga kelib tushadi va belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilib, tasdiqlangani yoki rad etilgani to'g'risida xabar fuqaroga elektron tizim va SMS xabaromaga orqali yuboriladi. Javobgarlikni qabul qilib oluvchi ham buni tasdiqlashi kerak. Shundan so'ng qurollamal tomonidan aniqlangan tegishli qoidabuzarliklarning jarima ballari boshqaruvni

qabul qilgan haydovchiga nisbatan qo'llanila boshlaydi. Mazkur xizmatdan foydalanishda ijtimoiy reyestrda qayd etilgan hamda I va II guruh nogironligi bor shaxslar uchun to'lovlarida 50 foiz chegirma mavjud. Davlat organlari va yo'lovchi tashuvchilar uchun esa o'z xodimlariga javobgarlikni rasmiylashtirish teklin.



uz avtomashina egasi tomonidan elektron ariza topshirish tartibi belgilangan, — deydi Zoyir Yo'ldoshev. — Qoidabuzarlik uchun javobgarlikni boshqa shaxsga o'tkazish xizmati yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining mobil ilovasi orqali ariza yuborish tarzida amalga

qabul qilgan haydovchiga nisbatan qo'llanila boshlaydi.

Mazkur xizmatdan foydalanishda ijtimoiy reyestrda qayd etilgan hamda I va II guruh nogironligi bor shaxslar uchun to'lovlarida 50 foiz chegirma mavjud. Davlat organlari va yo'lovchi tashuvchilar uchun esa o'z xodimlariga javobgarlikni rasmiylashtirish teklin.



**Issiq iqlimi va unumdor tuprog'i sabab Surxondaryoda kartoshkadan bir yilda bir necha marta hosil olish mumkin. Jumladan, Jarqo'rg'on tumani Guliston mahallasidagi dehqonlar kartoshka hosilini shu yil fevral oyi boshida yig'ishtirib ola boshlagan edi.**



Mazkur mahallada 777 xonadon bor. Ularning qariyb 90 foizi kartoshkachilik bilan shug'ullanadi. Umumiy 100 gektar tomorqada kartoshka yetishtirilmoqda. Muhimi, mahalla tomorqachilari yiliga to'rt martagacha hosil olishni uddalab kelmoqda. Huddudagi har qarich yer hisobda. Chunki mahallaning drayveri — kartoshkachilik. Shu bois, undan bo'shagan yerga yana kartoshka ekiladi. Yer unumdorligini saqlash uchun esa almashlab ekish tizimi asosida sarimsoq va yeryong'oq kabilar ham ekilmoqda. Umuman olganda, Guliston mahallasi dehqonlarining qisqa muddatda bir necha bor hosil olishdagi tajribasi boshqa hududlar uchun namunaviy model sifatida xizmat qilmoqda.

So'nggi yillardagi yangilanishlar sabab mazkur salohiyatdan unumli foydalanish imkoniyati vujudga keldi. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 8-sentabrda "Respublikada kartoshka yetishtirishni ko'paytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim huquqiy asos bo'ldi.

— Avval gektar-gektar yerga urug' qadab, haminqadar hosil olardik. Daromadiku, mayli, xarajatini qoplash muammo edi.

**VOHA FERMERLARINING MUVAFFAQIYAT FORMULASI**

**ZAMIN MEHRDAN, INSON BILIMDAN KUCH OLMOQDA**

Chunki olimlar fikri bilan hisoblashilmasdi. Keyingi yillardagi yaxshi tendensiya sabab barcha sohaga ilm bilan yondashila boshladi. Shu bois, qishloq xo'jaligida ham salmoqli natijalarga erishyapmiz, — deydi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti Saidmurod Eshimov. — Universitetimiz tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad malakali kadrlarni yetishtirib berishdir. Ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va amaliyotchi dehqonlar o'rtasidagi hamkorlik yuqori hosildor va kasalliklarga chidamli navlarni yaratishda muhim. Qolaversa, agrotexnologiyalarni



takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Hamkorlik doirasida tuproq unumdorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy o'g'itlash va himoya usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy hamkorlik natijasida hududning iqlim sharoitiga moslashgan, tepishar va yuqori sifatli kartoshka navlarini yetishtirish imkoniyati kengaymoqda.

Surxondaryolik mirishkorlar yil davomida yerdan oqilona foydalanib, katta ximmon ko'tarishning hadisini olgan. Ular ertaki va kechki kartoshka parvarishida ham o'ziga xos tajriba to'plagan. O'tgan yili viloyatdagi 9000 gektar yerga kartoshka ekilib, 189 ming tonna hosil olindi. O'rtacha hosildorlik 210 sentnerni tashkil etgani fikrimiz dalilidir.

Jumladan, o'tagan mavsumda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarini 7000 gektar maydondan 185 ming 543 tonna, dehqon xo'jaliklari esa 2000 gektar yerdan yuqori hosil yig'ishtirib oldi. Joriy yilda ham viloyat mirishkorlari mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirib mehnat qilmoqda.

— Surxondaryodagi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarini 15 ming gektar

**Haydovchilik guvohnomasini qaytarib olish uchun qaytadan imtihon topshiriladi**

Qoidabuzarliklar uchun javobgarlikni kim zimmasiga olishini avtomobil egasining o'zi hal qiladi. Ammo javobgar kim bo'lishidan qat'i nazar, qoidabuzarliklar uchun jarima ballari hisoblanishda davom etadi. Agar bir yil ichida ballar soni 8 tadan oshsa, haydovchiga SMS orqali ogohlantiruv yuboriladi. 12 ball to'planganda ma'lumot ma'muriy chora ko'rish masalasini ko'rib chiqish uchun sudga yuboriladi. Haydovchi sudga bayonnomaga qarshi shikoyat bildirishi mumkin, asosli bo'lsa, qaror va ballar bekor qilinadi. Aksincha holatda esa haydovchi 6 oydan 3-yil muddatgacha haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilinadi.

Odamlarni haydovchilik huquqidan mahrum etilgan fuqaro qay tartibda yana guvohnomani qaytarib olishi, uning shartlari qanday bo'lishi haqidagi savollar ham qiziqtirmoqda. Mutasaddilarning aytishicha, fuqaro guvohnomani qaytarib olish uchun qaytadan imtihon topshirishiga to'g'ri keladi.

— Vazirlar Mahkamasining 2018-yildagi tegishli qarorida avtomototransport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilingan shaxslar milliy haydovchilik guvohnomasini qaytarib olish uchun mahrum qilish muddatidan qat'i nazar, ma'muriy jazo muddati nihoyasiga yetgach, majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi, nazariy hamda amaliy imtihonlarni qayta topshirishi shart ekani ko'rsatilgan, — deydi Zoyir Yo'ldoshev. — Demak, fuqaroning haydovchilik huquqi nazariy va amaliy imtihonlardan o'tish asosida qaytarib olinadi. Yana bir tomoni, amaldagi tartibga ko'ra, haydovchilik huquqidan mahrum etilgan shaxs ushbu huquqni qaytarib olish uchun nazariy imtihonlarda 20 tadan 18 ta emas, balki 50 ta savoldan 46 tasiga to'g'ri javob berishi talab etiladi. Shu bois, haydovchilar, avvalo, o'zi va boshqalar xavfsizligi, qolaversa, haydovchilik huquqidan mahrum bo'lib qolmasligi uchun ham yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ya'ni endi haydovchilar ballar tizimiga moslashibgina qolmay, yo'llarda harakatlanayotganida intizom va hushyorlikni oshirishi kerak. Chunki tizim amaliyotga joriy etildi va kameralar jarima ballarni qayd etishi boshladi. Ehtiyotizlik sabab 12 ball to'planib qolsa, jarima puli bilan qutulib bo'lmaydi, kamida olti oy haydovchilik guvohnomasidan mahrum bo'lishga to'g'ri keladi.

Tartibli haydovchilar uchun esa imtiyoz va rag'batlar mavjud. Masalan, agar haydovchi bir yil ichida umuman qoidabuzarlik sodir etmasa va ball yig'masa, rag'batlantirish tariqasida navbatdagi yilda yozilgan birinchi jarima bali hisoblanmaydi. Bordi-yu, yil davomida birinchi ballni yig'ib, undan keyin takroran umuman qoidabuzarlik sodir etmagan taqdirda ham navbatdagi yilda olgan birinchi bali chegirib tashlanadi. Shuningdek, haydovchi oxirgi huquqbuzarligi uchun jarima hisoblangan vaqtdan boshlab 6 oy davomida umuman qoidabuzarlik sodir etmasa, umumiy to'plagan ballardan 2 ball chegiriladi.

Bir yil ichida jarima ballari 12 ballga yetmasa, haydovchiga qonuniy jazo chorasi qo'llanilmaydi va bungacha to'plangan ballari kelasi yil davri uchun hisoblanishiga yo'l qo'yilmaydi. Navbatdagi yildan jarima ballarni hisoblash yangidan boshlanadi. Bular ham haydovchiga qo'shimcha yengilliklar berilib, ballar tizimi jazo chorasi emas, balki yo'llardagi xavfsizlikni ta'minlashga qaratilganlik ko'rsatadi.

**Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**

yerga kartoshka ekkan. Shuningdek, dehqon xo'jaliklari 9300 gektar maydonga hudud iqlim sharoitiga mos navli sara urug' qadagan, — deydi Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Akmal Mardonov.

Viloyatdagi dehqon xo'jaliklari hamda kartoshkachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari agronomlari ishtirokida amaliy seminarlar tashkil etish an'anasiga aylangan. Unda sohaning tajribali mutaxassislari, ilmiy xodimlar va yetakchi fermerlar kartoshkachilikning zamonaviy usullari, hosildor nav tanlash, urug'lik tayyorlash kabi masalalar bo'yicha ma'lumot almashadi. Muhimi, agronomlarga tuproq unumdorligini oshirish, mineral va organik o'g'itlardan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo mintaqaviy filiali kartoshka ekinini turli zararli hasharot va kasalliklardan asrashga alohida e'tibor qaratadi.

— Malakali mutaxassislar zararkundalarni erta aniqlab, tarqalishining oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlar o'tkazmoqda, — deydi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo mintaqaviy filiali ilmiy xodimi Mansur Xo'jayev. — Ayniqsa, kartoshka hosiliga katta zarar yetkazadigan kolorado qo'ng'izi, simqurt kabi zararkundalarga qarshi integratsiyalashgan himoya usullarini qayta ishlab chiqarish ustuvor ahmiyatga ega bo'ldi.

Bugun surxondaryolik dehqonlar imkoniyatlardan samarali foydalanmoqda. Ular yil davomida tinim bilmay, hatto qishda ham qulay fursat bo'lishi hamon yerga urug' qadab, hosil olishga urinmoqda. Buning samarasini esa kartoshkachilikda erishilayotgan yutuqlar misolida ko'rish mumkin.

**Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**

Sog'lom turmush tarzi sog'lom kelajak garovidir. Yaqindan davlatimiz rahbari raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida ko'tarilgan masalalar ushbu hayotiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash uchun katta imkoniyat yaratadi.



**Bahodir MA'MUROV,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Binobarin, unda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va ijtimoiy faolligini oshirishda sportning o'rni alohida ekanini qayd etildi. Yutuqlarni mustahkamlab, tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etishga e'tibor qaratildi. Bugungi globalshahar

# SPORT – YOSHLAR UCHUN KATTA IMKONIYAT

sharoitida har bir davlatning raqobatbardoshligi, avvalo, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamoligi bilan belgilanadi. Shu bois, jismoniy tarbiya va sport masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, izchil islohotlar amalga oshirilmog'ya.

Yig'ilishda oliy ta'lim muassasalarining sport yo'nalishidagi faoliyatini yanada kuchaytirish zarurati mavjudligi qayd etildi. Ayrim

**Bugun Buxoro davlat pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan "Talaba yoshlar sport klubi" da yigit-qizlar sportning futbol, voleybol, stol tennis, yengil atletika, gandbol, dzyudo, shaxmat, shashka, badminton, chim ustida xokkey, kurash kabi turlari bilan shug'ullanmoqda. O'tgan davrda institut talabalari jami 175 ta medalga sazovor bo'lgan. Shundan 11 tasi xalqaro musobaqalarda, 16 tasi Osiyo chempionatlarida, 148 tasi respublika miqyosidagi bellashuvlarda qo'lga kiritilgan.**



OTMlarda sport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, sport inshootlaridan foydalanish darajasi pastligi, talabalarni sportga jalb etish tizimi ko'p hollarda formallikka aylanib qolganini tanqid qilindi.

Musobaqalar muntazam emasligi yoki keng qamrovli tashkil etilmayotgani ham aytiladi. Shuningdek, sport federatsiyalarining oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlamasligi iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va professional sportga yo'naltirish imkoniyati pasayishiga sabab bo'lmoqda. Iqtidorli talabalar bilan individual ishlash masalasida ham kamchiliklar mavjud. Xususan, yuqori natijalarga erishish salohiyatiga ega yoshlar uchun individual murabbiylar birlashtirish tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa ularning professional darajada o'sishiga to'siqlik qiluvchi omillardan. Holbuki, zamonaviy sport tizimida har bir sportchi bilan individual

yondashuv asosida ishlash eng muhim talabdir. Ushbu kamchiliklarning ochiq muhokama qilinayotgani va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq vazifalar belgilanayotgani ijobiy hol, albatta. Bu esa tizimni yanada takomillashtirish, muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish imkonini beradi. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayotgan va aniq strategik yondashuv shakllanayotgan sport sohasida oliy ta'lim muassasalarining mavqeiini kuchaytirish, ushbu jarayonda nafaqat ta'lim maskani, balki yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va iqtidorli sportchilarni yetishtirish markaziga aylanishi dolzarb vazifadir.

Prezidentimizning taklifiga ko'ra, "mahalla — maktab — sport muassasasi — oliygo'ha" uzviy tizimi asosida yoshlarni sportga jalb etish, iqtidorli sportchilarni aniqlash va professional darajada tayyorlash bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etiladi. Sport to'garaklari faoliyatini kengaytirilib, ularga tajribali murabbiylar birlashtiriladi, sport yo'nalishidagi talabalar esa dual ta'lim asosida amaliy murabbiylik faoliyatiga jalb etiladi. Shuningdek, "salomatlik balansi", "sog'lom hayot volontyorlari", kross-fit kabi zamonaviy

yo'nalishlarni joriy etish tashabbusi ham yoshlar o'rtasida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda muhim. Sport sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ulami amaliyot bilan integratsiya qilish, sport tibbiyoti, fiziologiya, reabilitatsiya va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ham ustuvor yo'nalishlardir. Sun'iy intellekt asosida sportchilarni faoliyatini tahlil qilish, mashg'ulot jarayonlarini optimallashtirish kabi zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ilmiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Sport sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar sog'lom, faol va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan sport to'garaklarining o'rni muhim.

Bugun Buxoro davlat pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan "Talaba yoshlar sport klubi" da yigit-qizlar sportning futbol, voleybol, stol tennis, yengil atletika, gandbol, dzyudo, shaxmat, shashka, badminton, chim ustida xokkey, kurash kabi turlari bilan shug'ullanmoqda. O'tgan davrda institut talabalari jami 175 ta medalga sazovor bo'lgan. Shundan 11 tasi xalqaro musobaqalarda, 16 tasi Osiyo chempionatlarida, 148 tasi respublika miqyosidagi bellashuvlarda qo'lga kiritilgan.

Yaqinda "Vazir kubogi" musobaqasi doirasida qizlar o'rtasida ilk bor tashkil etilgan chim ustida xokkey bellashuvida talaba qizlarimiz 3-o'rinni egallagan mazkur sport turi bo'yicha faoliyatimizning ilk natijasidir. Talabalarimizning bu kabi yutuqlari barchamizni quvontiradi. Shunday bo'lsa-da, yoshlarning sport turlari bo'yicha muntazam shug'ullanishiga sharoit yaratish yo'lida doimiy harakatdamiz. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi mazkur islohotlar esa yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va yuqori natijalarga erishadigan sportchilarni tayyorlashda alohida faollik talab qiladi. Institutimiz mazkur islohotlar bo'yicha samarali ishlash, salmoqli natijalarni ko'rsatadi.



# Raqamli olam YULDUZLARI

## Xotin-qizlarning axborot texnologiyalari yo'nalishidagi intilishi

Axborot texnologiyalari sohasida loyiha menejerligidan frilanserlik yo'nalishigacha yuqori natijalarni qayd etayotgan ayol-qizlar haqida hech ikkilanmay, "Ular texnologiyalar kelajagini yaratyapti", deyish mumkin.

Bu shunchaki so'z emas, aniq natijalar bilan tasdiqlangan haqiqat. 2025-yilda "Bir million dasturchi", "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari", "AT shaharcha", "Muhammad Xorazmiy vorislari" loyihalari, "Farovonlik sari" dasturi orqali bepul ta'lim olgan hamda xususiy ta'lim markazlarida axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qigan 560 ming yoshning 281 ming nafari, ya'ni 50,5 foizini qizlar tashkil

etdi. So'nggi uch yilda esa axborot texnologiyalari yo'nalishida ta'lim olgan qizlar ulushi 2 karra oshdi. Qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilayotgan ICT4 Girls olimpiadasi va yozgi oromgohlar yuzlab yoshlarni qamrab olmoqda. Shuningdek, birgina joriy yilning o'tgan davrida "GAP" ayollar AT klubi doirasida 6 viloaytda 1150 qiz sohani o'rgangan bo'lsa, yaqinda 14 iqtidorli qiz "Yulduz

Tech Awards" mukofoti bilan taqdirlandi. Coursera platformasida O'zbekiston sun'iy intellekt kurslarida ayollar faolligi bo'yicha Global Leader deb tan olindi. Ayniqsa, qizlarning tibbiyot, ta'lim, ilm-fan sohasidagi intilishlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, jumladan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish yo'nalishida qilayotgan izlanishlari e'tiborga molik.

## ENG YAXSHI QO'LLOVCHIM — ONAM!

### Nodira Ibrohimova, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori:

— Surxondaryoning olis Xufar qishlog'ida tug'ilganman. Til o'rganish va texnologiyalar sohasiga qiziqishimga onam turki bergan. Maktabda o'zbek tilida tahsil olganimga qaramay, xorijiy tillarni ham birdek o'zlashtirib borganman. Hozir 5 tilda erkin mulog'ot qilaman.

Keyinchalik Toshkent shahridagi Inha universitetiga AT yo'nalishida shartnoma asosida o'qishga qabul qilindim. Men tanlagan soha nafaqat oilamiz, balki yurtimizda ham hali yangilik edi. Shunga qaramay, sharoitimiz yetarli bo'lmasa-da, onam o'qishim uchun barcha imkoniyatni ishga soldi. Tinimsiz mehnat qildi va bizni kamolga yetkazdi. Nazarimda, dunyodagi



eng yaxshi investor — mening onam! Barcha yutuqlarim zamirida volidamning zahmati va mehnati borligini chuqur his qilib turaman va qalbimni minnatdortlik tuyg'ulari egallaydi.

Inha universitetini 3+1 dasturi orqali Janubiy Koreyada bitirdim. Bu AT

yo'nalishida bilimimni mustahkamlashimga zamin yaratadi. Mana, 10 yildirki, sohada faoliyat yuritayman. Dasturiy ta'minotni rivojlantirish, mashinaviy o'rganish (ML/AI), raqamli sog'liqni saqlash loyihalari, ta'lim va mentorlik, ayniqsa, ayollar va yoshlarni ATga jalb qilish, inkluziv ta'limni rivojlantirish — faoliyatimning asosiy yo'nalishlari.

Shu kungacha AQSH, Malayziya, Marokash, Janubiy Koreya, Kamerun hamda Yevropa va MDH davlatlarida tajriba orttirib, xalqaro texnologik loyihalarda ishtirok etdim va yuqori natijalarga erishdim. AT yo'nalishida Polshada o'tkazilgan yirik sammitda ilk bor o'zbekistonlik qiz sifatida qatnashib, yurtimizdagi jadal o'zgarishlar haqida 10 ming kishilik auditoriyada nutq so'zlash nasib etdi.

2019-yildan buyon Raqamli texnologiyalar vazirligi va AT park ko'magida O'zbekistonda STEM sohasidagi 50 ga yaqin eng iqtidorli ayoldan iborat delegatsiyaga "Perspektyviy Women in Tech (PWIT) Summit" sammitida ishtirok etish uchun rahbarlik qilib kelyapman. Ularning ko'pi hozir yirik texnologiya kompaniyalarida ishlamoqda. Butun Yevropa bo'yab bakalavriat hamda magistratura dasturlarida AT yo'nalishida tahsilni davom ettiryapti.

Yaqinlarimning aksariyati shifokorlar bo'lgani uchunmi, bolaligidan tibbiyotga doir qanday qo'llanma bo'lmasin, o'qib-o'rganishga harakat qilaman. Sohaga qiziqishim uni sun'iy intellekt bilan bog'lashimga turki berdi. Sog'liqni saqlash yo'nalishida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishni maqsad qildim.

Chikagodagi StrataJazz kompaniyasida AQSHdagi 100 dan ortiq shifoxona

ma'lumotlarini tahlil qilish bo'yicha tajriba orttirdim. Kamerunning Yaunde shahrida sun'iy intellekt orqali mikrooskop qon tahlillari asosida bezgakni tif kasalligidan ajratish xalqaro loyihasida ishtirok etmoqdaman.

2025-yili Stenford universiteti ortopedik jarrohlik bo'limi professori bilan hamkorlikdagi tos-chanoq sun chiqishini sun'iy intellekt orqali barvaqt aniqlash mavzusida ilmiy izlanish boshladim. Ayni paytda AQSHning Stenford va Buyuk Britaniyaning University College London universitetlari tadqiqotimga qiziqish bildirgan.

O'tgan yili Angor tumanida maktab o'quvchilari va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kelajak kasblar yo'nalishida treninglar tashkil etdim. Mashg'ulotlarda xalqaro va mahalliy universitetlar uchun grant olish tartiblari bo'yicha tushuncha berildi. Tadbiirlarda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lganlar ishtirok etdi.

AKT savodxonligini, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish va O'zbekistonni mintaqaviy AT markaziga aylantirish borasidagi qarashlarim qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuningdek, ushbu sohaga inkluziv yoshlarni va xotin-qizlarni jalb qilish to'g'risidagi ishlarim e'tibordan chetda qolmadi. Joriy yilda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldim. Bu men uchun katta faxr. "Yulduz Tech Awards" tanlovidagi g'oliblik esa orzularimga qanot bag'ishladi. Kelgusida sun'iy intellekt yordamida erta diagnostika modellari tadqiq qilish orqali sog'liqni saqlash sohasi rivojiga hissa qo'shish — eng katta maqsadlarimdan.

## KELAJAK TIBBIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT

### Iroda MUHIDDINOVA, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi, 27-poliklinika oilaviy shifokori:

— Tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lsam-da, texnologiyalarga qiziqishim bir necha yil oldin boshlangan. Nevrologiya va inson miyasi qanday ishlashini o'rganish jarayonida quyidagi xulosaga keldim: kelajak tibbiyotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash imkoniyati meni juda qiziqirdi. Shu qiziqish tibbiyot va texnologiyalarni birlashtirish g'oyasini berdi. MindTech loyihasi ustida ish boshladim.

Tibbiyot sohasida o'qish barobarida texnologiyalar bilan shug'ullanish bir qaraganda tushunarsiz tuyulishi mumkin. Ammo aslida bu ikki soha bir-biriga juda yaqin. Zamonaviy tibbiyotda ma'lumotlar tahlili, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt juda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, nevrologiya, tibbiy psixologiya va SI yordamida kasalliklarni erta aniqlash, tibbiyot va axborot texnologiyalarini birlashtirgan ilmiy loyihalar ustida ishlash istagi meni tinch qo'ymadi.

Nevrologik kasalliklar ko'p hollarda kech aniqlanadi. Bu esa davolash samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Loyiha sun'iy intellekt yordamida nevrologik kasalliklarni erta diagnostika qilishga qaratilgan. Ayniqsa, parkinson kasalligini erta



bosqichda aniqlash muammosiga yechim bo'ladi.

Insonning rivojlanishida atrofda qolgan qo'llab-quvvatlovi juda katta ahamiyatga ega. Ota-onam va ustozlarim yangi g'oyalarni ustida ishlashdan cho'chimaslik, doim olg'a intilishim katta muvaffaqiyatga olib borishini aytib, ruhlanitirib turadi. Turli ilmiy konferensiyalar va startap dasturlarida qatnashish orqali esa katta tajriba to'pladim. Ilmiy izlanishlarim va loyihalarim bilan turli xalqaro konferensiyalar va tanlovlarda ishtirok etish imkoniga ega bo'ldim.

Yaqinda "Yulduz Tech Awards" tanlovida g'olib bo'ldim va munosib taqdirlandim. Hanzu g'oliblik shukhi qalbimni tark etgani yo'q. Rag'bat insonni yangi marralar sari undaydi. Kelgusida tibbiyot va texnologiyalarni birlashtirgan innovatsion loyihalar ustida ishlashni davom ettirmoqchiman. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida nevrologik kasalliklarni erta diagnostika qilish bo'yicha tadqiqotlarimni davom ettirish niyatim bor.

## KELGUSI YUTUQLARIMGA MUSTAHKAM POYDEVOR

### Sevinch Mavlonova, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori:

— O'tgan yili "Raqamli avlod qizlari" tanlovida LLS (Life Learning School) startap loyihamiz g'olib deb topildi. Loyiha maktab o'quvchilari uchun sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan ta'lim platformasidir. Bu platforma o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga shaxsiylashtirilgan ta'lim rejasini taklif qiladi va samarali o'qish imkonini beradi. Mazkur yutuq bizga AQSHning Garvard va MIT kabi nufuzli universitetlarida ta'lim olish va malaka oshirish imkoniyatini taqdim etdi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun xalqaro darajadagi bilim, masalan, Apple yoki Garvard kurslarining sertifikatiga ega bo'lish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish zarur. Bundan tashqari, faqat texnik bilimlar bilan cheklanib qolmay, emotsional intellekt, odamlar bilan ochiq mulog'ot qila olish va ommaviy nutq so'zlash ko'nikmalariga ega bo'lish muhim.

Xalqaro TEDx tashkiloti doirasida TEDxNewUU loyihasiga asos soldim. TEDx dunyo bo'yab tashkil etiladigan mustaqil konferensiyalar turkumi bo'lib, unda innovatsion g'oyalarni, ilmiy yutuqlar va ijtimoiy muammolarni bo'yicha ilhomlantiruvchi chiqishlar taqdim etiladi. Ushbu platforma asosida yoshlar o'z g'oyalarni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekistonda TEDx tadbirlari orqali biz yoshlar orasida innovatsion fikrlash, yetakchilik va global tafakkur shakllantirishga hissa qo'shmoqdamiz.

Bu sa'y-harakat kelajakdagi yutuqlarim uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Xususan, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti axborot texnologiyalari sohasidagi faoliyatim, startap loyihalarim, yoshlar bilan qilayotgan ishlarim va xotin-qizlarni texnologiya sohasiga jalb



etishdagi tashabbuslarim uchun berildi.

**Mukofot zimmamga juda katta mas'uliyat yukladi. Endi jamiyat uchun ham foyda keltirishim kerakligini chuqur his qildim. O'zimni rivojlantirish barobarida O'zbekiston yoshlari, xususan, xotin-qizlar nomi dunyo axborot texnologiyalari olamida yangrashi uchun bor bilim va tajribamni qo'llayman.**

Hozir AT sohasida startap ekozimni jadal rivojlanmoqda. Kelgusi besh yilda o'z startap loyihalarimni xalqaro darajaga olib chiqish, ularni kengaytirish va odamlarga foyda keltirishni maqsad qilganman. Shuningdek, qizlarni AT sohasiga jalb qilish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish, ularga ilhom berish va amaliy yordam ko'rsatishga harakat qilaman.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA tayyorladi.**



6  
2026-yil 14-aprel, 73-son

**“Ko‘mak” dasturi doirasida olis va chekka hududlarda xorijiy til o‘quv markazlari faoliyatini kengaytirish uchun 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi.**

**Nuqtayi nazar**

**OH, SENING YOSHLIGING MENDA BO‘LSAYDI...**

“Agar yoshlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni ma‘qul ko‘rsa, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun ham O‘zbekistonda kerakli barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit, biznesini tashkil etish uchun joy va boshqa imkoniyatlar ko‘paytirilmoqda.

**Boshlanishi 1-betda**

Yoshim saksondan oshdi. Lekin umrimning asosiy qismi, ishim, faoliyatim yoshlar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun bugun yurtimizda ularga yaratilayotgan qulayliklar haqida fikr bildirgim keldi. Zero, bugungi o‘zgarishlarning avvalgilardan farqi yer bilan osmoncha. Farzandlarimiz, nevaralarimiz davri hozir. Zamon ulamiki. Havas esa bizniki.

Guvohi bo‘lib turibmizki, keyingi o‘n yilda O‘zbekistonning yoshlarga oid siyosati tubdan o‘zgardi, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash borasida asrlarga tatigulik islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko‘p yillardan buyon oliy ta‘lim sohasida yoshlar bilan ishlaydigan mutaxassis sifatida O‘zbekiston tarixida hozirga qadar o‘g‘il-qizlarning ta‘lim olishi, manfaatli kasb o‘rganishi, qisqa aytganda, hayotini yo‘lga qo‘yib olish uchun bu qadar qo‘llab-quvvatlangan bir davri ko‘rmadim.

O‘zim faoliyat yuritadigan soha — ta‘lim tizimida Prezidentimizning qator farmon va qarorlari, tashabbusi bilan tub islohotlar, yangilanishlar kechdi, samarador mexanizmlar hayotga tatbiq etildi. Islohotlar avvalida o‘qituvchi va murabbiylarning maqomi va moddiy manfaatli oshdi. “O‘qituvchilar ming dollar oylik oladi”, degan gaplarga, ochig‘i, ko‘pchilik ishonqiradi. Sababi, o‘sha davrlarda ular bunday oylikni hatto orzu ham qilmas edi. Ammo bugunga kelib, sohadagi yangi tashabbus va loyihalar natijasida o‘qituvchilar bundan ham ko‘p maosh olyapti.

Bundan tashqari, 15-20 yil oldin o‘quv mavsumining teng yarmi paxta dalasida o‘tib ketardi. Oliy ta‘lim tizimi korrupsiyalashgan, taraqqiyotdan ortda qolgan edi. Ammo bugun ta‘lim, ilm-fan sohasiga qaratilgan e‘tibor tufayli bu muammolar yechimini topdi. Ta‘lim tizimiga raqamli texnologiyalar tatbiq etilib, soha taraqqiyotiga to‘siq bo‘lgan illatlarga barham berildi. Natijada esa o‘zbek yoshlari dunyo miqyosida yuqori reytinglarga erishmoqda.

Xalqimizning ta‘lim sohasi, ilm-ma‘rifatga qarashi bugun o‘n, yigirma yil oldindan butkul farq qiladi. Joriy yil 24-fevralda Prezidentimizning yoshlar bilan muvofiq bo‘lib o‘tdi. Unda davlatimiz rahbari O‘zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez sur‘atlarda rivojlanayotgan davlat deb e‘tirof etilganini bildirdi. Yoshlarning bunday e‘tirofida savazor bo‘lishi keyingi yillardagi ta‘lim

chetda qoldirmaydi. Xususan, bu yil O‘zbekistonda o‘quv markazlari faoliyati o‘zining oltin davriga qadam qo‘ymoqda deyish mumkin. Albatta, o‘quv markazlari ommalashib borishida ularga yaratilgan qulay shart-sharoit, imtiyoz va rag‘batlar yil sayin ortib borishi zamin yaratadi. Xususan, o‘quv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit, chekka hududlarda chet tillarga ixtisoslashgan o‘quv markazlari ochgan malakali yoshlarga 120 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi. Shuningdek, xususiy o‘quv markazlarida xorijiy tillarni o‘rganadigan yoshlarga to‘lovli “2+6” oy shaklida qoplab berilishi tarmoqning yanada gurkirab yashnashiga zamin hozirladi. Natijada qo‘llab-quvvatlash mexanizmi samara berib, xorijiy til sertifikatiga olgan yoshlar soni 600 mingdan oshgani, xorijiy tillarni mukammal biladigan 72 ming instruktor shakllangan aytiladi. Xususiy o‘quv markazlari soni 3 karra ko‘payib, 38 mingdan oshdi.

Davlatimiz rahbari ochiq muuloqotda bildirganidek, endilikda Xususiy o‘quv markazlari uyushmasi tuzilib, uyushma



a‘zosi bo‘lgan markazlarga binosini ijaraga bergan tadbirkorlar ijaradan olinadigan daromad va foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi. Bunday markazlar o‘qituvchilarini ilg‘or ta‘lim markazlariga stajirovkaga yuborish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Ya‘ni tarmoq yagona katta kuchga aylanib, ish samaradorligi karrasiga ortishi



**Begdavat ALIYEV, falsafa fanlari doktori, professor**

“Bugun O‘zbekiston yoshlari orzu-umidi, oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar mujassam. Ulardan faqatgina o‘qish-izlanish, o‘z ustida ishlash talab etiladi.

yetarlicha edi. Ammo keyingi yillarda yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi natijasida aholining turli qatlamlari orasida oliy ma‘lumotga ega fuqarolar soni ko‘paydi. Jumladan, aholining turli ijtimoiy himoyaga muhoj qatlamlarini qamrab olgan “Temir daftar”,

huquqiy choralar to‘g‘risida”gi farmoni bilan oliy sharoiti tufayli oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘qishini davom ettirmagan xotin-qizlarga yana o‘qish imkoniyatini taqdim qilish belgilandi.

Unga ko‘ra, homilador talaba-qizlarga yoki 3 yoshgacha bo‘lgan farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi talabalarga 2026/2027-o‘quv yilidan oliy ta‘lim olishi uchun “ikkinchi imkoniyat” beriladi. Ya‘ni kursdan kursga qolgan yoxud talabalar safidan chiqarilgan shaxslarga, istisno tariqasida, fanlar farqini qayta o‘zlashtirish sharti bilan ta‘limni davom ettirish imkoni yaratiladi. Talabalar fanlar farqini mustaqil o‘zlashtirishi uchun qo‘shimcha muddat beriladi va boshqa zarur shart-sharoitlar tashkil etiladi. Bu esa talabalar orasida xotin-qizlar soni yanada ko‘payishiga zamin yaratadi.

Gapning indallosini aytganda, O‘zbekistonda yoshlarning oliy ma‘lumot olishi uchun barcha shart-sharoit mavjud. Jumladan, ularning bir paytning o‘zida bir necha oliygo‘h va ta‘lim yo‘nalishiga imtihon topshirish imkoni bor. Shuningdek, davlat ta‘lim muassasalariga kira olmagun yoshlar o‘zi qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha xususiy universitetlarda ham tahsil olishi mumkin.

Ilgari oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlaridan o‘tmagan yoshlar uchun ikkita yo‘l bor edi. Biri — yana qayta tayyorgarlik ko‘rish, ikkinchisi — ishlash uchun xorijga ketish. Bugun yoshlarga hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib olish uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochilgan. 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab yana bir yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi. Bundan asosiy maqsad ham yoshlarning ta‘lim olish imkoniyatini yanada kengaytirish. Unga ko‘ra, keyingi o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilarni qobiliyatiga qarab kasb yoki oliy ta‘limga yo‘naltirish maqsadida 9- va 11-sinf o‘quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari joriy qilinadi. Bunda bitiruvchilar to‘plagan ballariga ko‘ra o‘qishni oliy ta‘lim muassasasi yoki texnikumda davom ettiradi. Ya‘ni ustoz bo‘lmasa, usta bo‘ladi. O‘g‘il-qizlarimiz yo‘ bilim, yo‘ yaxshi bir kasb-hunar egasiga aylanadi.

Agar yoshlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni ma‘qul ko‘rsa, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun ham O‘zbekistonda kerakli barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit, biznesini tashkil etish uchun joy va boshqa imkoniyatlar ko‘paytirilmoqda. Xususan, o‘tgan yili yoshlar bandligini ta‘minlash uchun banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar yo‘naltirilgan, natijada “Yoshlar biznesi” va “Kelajakka qadam” dasturlari hisobidan 15 ming yosh o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yib, 50 ming kishini ish bilan ta‘minlagan. Bu ishlarning davomi sifatida 2026-yilda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha 200 million dollar ajratilgan.

Bugun O‘zbekiston yoshlari orzu-umidi, oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar mujassam. Ulardan faqatgina o‘qish-izlanish, o‘z ustida ishlash talab etiladi. Shijoatli, aql-zakovati baland yangi O‘zbekiston buniyodkorlari bo‘lmish oltin avlodni ko‘rganimda ularga havasim keladi. Beixtiriy O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hamid G‘ulomning “Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...”, degan jumlarini takrorlayman.



**HARAKATLARIMIZDA AKS ETADI**

Vatanni anglatmoq, uning muqaddas va buyukligini his etmoq, asrab-avaylamoq, ozod va obod holda kelajak avlodlarga meros qoldirmoq har birimizning zimmamizga katta mas‘uliyat yuklaydi.



**Pardaxol NORQOBILOVA, Preziblika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bosh mutaxassisi**

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori milliy mustaqilligimiz mard va matonatli xalqimizning qat‘iy irodasi asosida bunyod etilgani, istiqloq yo‘lida jonini fido qilgan ajdodlarimiz orzu-umidlarining ro‘yobi hamda yangi O‘zbekistonda barpo etishga qaratilgan ezu ishlarimizning mustahkam asosi, shuningdek, kelajak avlodlarimizga bezavol yetkazimish shart bo‘lgan buyuk va muqaddas qadriyat ekanini aks ettirgani bilan ham muhimdir.

O‘titiz besh yil tarix oldida ulkan ahamiyatli raqam bo‘lmisligi mumkin. Ammo davlatchiligimiz tarixida 35 yil mobaynida amalga oshirilgan islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo

Shuningdek, xalqimiz hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar aholi turmush farovonligi oshib borayotgani, hamma narsa inson va “inson qadri uchun” tamoyili asosida kechayotganini qayd etib o‘tishimiz lozim. “Xalq davlat idoralarga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili asosida aholi murojaatlarining ijobiy yechim topayotgani, aholiga jahon standartlari asosida iqtisodiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatilayotgani, raqamli xizmat sohalari rivojlanayotgani ham fikrimizning isbotidir.

Xotin-qizlar va yoshlar siyosati davlat darajasiga ko‘tarilishi va bu boradagi islohotlar o‘z natijasini berayotgani ustuvor yo‘nalish va vazifalarni to‘g‘ri belgilab olganimizdan dalolat.

Xotin-qizlar siyosatini amalga oshirishda 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatni hayotga tatbiq etish natijasida ijobiy ko‘rsatkichlarga erishmoqdamiz. Jumladan, 230 mingga yaqin tadbirkor ayol qatlimi shakllangani, 6 mingga yaqin olim ayol ilm-fan sohasini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgani, o‘tgan yili dunyo arenalarida qizlarimiz 167 ta oltin, 193 ta kumush, 230 ta bronza medalni qo‘lga kiritganini faxr bilan aytay olamiz. Bu borada erishayotgan yutuqlarimiz dunyo hamjamiyati tomonidan ham e‘tirof etilayotgan quvonarli hol, albatta.

Qorarda respublikamiz bo‘ylab keng ko‘lamdagi ma‘naviyat-ma‘rifat tadbirlari va ijtimoiy loyihalarni o‘z ichiga olgan “Mustaqillik to‘yi” (festivali) tadbirlarini o‘tkazish nazarda tutilgan. Mazkur targ‘ibot tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida ilm-fan, ta‘lim, madaniyat, adabiyot va san‘at namoyandalari, sportchilar hamda



etishdek buyuk maqsad yo‘lidagi olamshumul yangilanishlar hatto jahon tarixi zarvaraqlariga yozilayotganini mamnuniyat bilan ta‘kidlab o‘tish joiz.

Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikka nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekiston nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi iqtisodiy-siyosiy jarayonlarda ham ilgari berayotgani, strategik islohotlari bilan nufuzli davlatlar qatoridan joy olayotgani hech birimizga sir emas.

Mazkur vaqt mobaynida yangi O‘zbekistonning “konstitutsiyaviy o‘zligini” belgilab bergan tarixiy islohotlar kechib, O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat ekanini, inson qadri, hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatini har narsadan ulug‘ligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ishlab chiqildi va harakatga keltirildi. Buyuk maqsadlarni o‘zida mujassam etgan Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek sharafli yo‘l uchun maqsad va vazifalar ilgari surildi. Bu jarayonlar o‘z natijasini berayotgani bilan ham ahamiyatli.

O‘zbekiston dunyoga ochildi. Dunyo ham yangi O‘zbekiston bilan do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlamoqda. Yaxshi qo‘shimchilik aloqalari fonida qo‘shni davlatlarning ichki siyosatiga aralashmaslik, tashqi siyosatda esa tinchlik va barqarorlikni himoya qilish kabi ulug‘vor maqsadlar ilgari surilmoqda.

jamoatchilik vakillaridan iborat ijodiy guruhlar shakllantirish rejalashtirilgan.

Bu loyiha doirasida milliy istiqlolimizning 35 yilligi davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ilm-fan sohasidagi yutuqlarimiz, istiqloq tuhfa etgan olamshumul voqealar hamda yurtimizdagi tinchlik va baxtiyorlik saodatini xalqimiz orasida keng ko‘lamda targ‘ib etish, har bir inson qalbidan vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish hamda shukronalik hissini kuchaytirish maqsad qilingan.

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda islohotlar, ularning natijadorligini o‘zida aks ettirgan “Mustaqillik zafaromasi” maxsus kitob-albomini tayyorlash bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

“Mustaqillik zafaromasi” kitob-albomi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan bo‘lib, har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tahliiliy yoritilib, erishilgan yutuqlar va natijalar haqida qiziqarli ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, kechayotgan islohotlarimiz zamirida xalqimizning farovon turmush tarzini ta‘minlash, mustaqilligimizning qadriga yetish, tinch va osuda hayotimizni asrab-avaylash, avlodlarimizga ozod va obod vatanni meros qoldirishdek ezu maqsad mujassamligini his etishimiz zarur.

“15-20 yil oldin o‘quv mavsumining teng yarmi paxta dalasida o‘tib ketardi. Oliy ta‘lim tizimi korrupsiyalashgan, taraqqiyotdan ortda qolgan edi. Ammo bugun ta‘lim, ilm-fan sohasiga qaratilgan e‘tibor tufayli bu muammolar yechimini topdi.

sohasi, aynan O‘zbekistonning salkam 6,5 million o‘g‘il-qizi o‘qiydigan, eng uzoq davom etadigan, hal qiluvchi bosqichi — maktab ta‘limidagi yangilanishlar hosilasidir.

Albatta, ilm yo‘lida yoshlarning oliy ta‘limga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo buning uchun, birinchi navbatda, universitet va institutlarga kirishda davlat imtihonlaridan ijobiy natijaga ega bo‘lish kerak. Bunda yoshlarimizga turli o‘quv markazlari ko‘makchi bo‘lmoqda. Yoshlarni qo‘llagani davlat ham e‘tibordan

ko‘zlanmoqda. Shuningdek, “Ko‘mak” dasturi doirasida olis va chekka hududlarda xorijiy til o‘quv markazlari faoliyatini kengaytirish uchun 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi. Olis hududlardagi o‘quv markazlari ijtimoiy soliqni 1 foiz, o‘qituvchilar uchun daromad solig‘ini 7,5 foiz miqdorida to‘laydi.

Albatta, yoshlarning ilm-fanga qadam qo‘yishida oliy ta‘limning ahamiyati katta. Ammo ilgari moddiy ahvoli og‘irligi yoki oilaviy sharoiti sabab universitetlarni tashlab ketayotganlar

“Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali yurtodoshlarimiz ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etilishi ularning hayotini yangi bosqichga ko‘tardi.

Masalan, o‘qish istagidagi yigit-qizlar “Yoshlar daftari”ga kirib, o‘quv markazlari to‘lovi yoki oliy ta‘lim muassasasi kontrakt pullarini to‘lash imkoniga ega bo‘ladi. Yolg‘iz ayollar yoki kambag‘al oila qizlari “Ayollar daftari” orqali tikuvchilik yoki kichik qandolatchilik markazlarini bunyod etib, davlatning qo‘llabi bilan risqu nasibasini ko‘paytiradi. “Temir daftar” odamlarning temir irodasini bukayotgan, farovon hayotiga to‘siq bo‘layotgan uy-joy yoki boshqa birlamchi ehtiyojlarini hal etishda muhim vositaga aylanadi.

Bugungi kunda xotin-qizlarning magistratura bosqichida tahsil olishi uchun kontrakt pullari davlat tomonidan to‘lab berilmoqda. Natijada universitet va institutlarda tahsil olayotgan qizlar soni 904 mingdan oshib, jami talabalarimiz 54 foizini tashkil etmoqda. Stajyor-tadqiqotchilar va doktoranturada tahsil olayotganlarimiz 8,5 ming nafari, ya‘ni 61 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani ham ahamiyatli.

Prezidentimizning shu yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir: **Salim DONIYOROV**

MUASSIS: **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-446. 30646 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov  
Musahhir: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.